



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **INGLIZ VA O‘ZBEK ONLINE YANGILIKLAR MATNLARIDAGI KOLLOKATSIYALAR VA ULARNING STRUKTUR XUSUSIYATLARI**

**Yuldasheva Mastona Muxubillayevna**  
Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada online yangilik matnlarida eng ko‘p uchraydigan kollakatsion birliklar va ularning strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek tilidagi Kun.uz, Daryo.uz, Qalampir.uz va ingliz tilidagi BBC News, CNN, Sky Newsdagi yangiliklardagi matnlardan foydalanildi. Kollokatsiyalar matnlarni kuzatish va strukturaviy tahlil qilish asosida ajratib olindi. Tahlil natijasiga ko‘ra ingliz tilida Adj+N, V+N, N+N kabi modellar aniqlandi, o‘zbek tilida esa kabi Ot+Ot, Ot+Fe’l modellarning faol qo‘llanilishi aniqlandi. Eng ko‘p uchraydigan birliklar semantik jihatdan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga tegishli ekani kuzatildi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik, tarjima va media diskurs tahlilida amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar.** Kollakatsiya, yangilik diskursi, strukturaviy model, media matn.

## **КОЛЛОКАЦИИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ОНЛАЙН-НОВОСТНЫХ ТЕКСТАХ И ИХ СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Юлдашева Мастона Мухубиллаевна**  
Гулистанский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье анализируются наиболее часто встречающиеся коллокационные единицы в текстах онлайн-новостей и их структурные особенности. В качестве материала исследования использованы тексты новостных публикаций на узбекском языке с сайтов Kun.uz, Daryo.uz, Qalampir.uz, а также на английском языке -BBC News, CNN и Sky News. Коллокации были выделены на основе наблюдения за текстами и их структурного анализа. По результатам исследования в английском языке выявлены такие модели, как Adj+N, V+N, N+N, тогда как в узбекском языке активно используются модели N+N и N+V. Установлено, что наиболее частотные единицы семантически относятся к политической, социальной и экономической сферам. Результаты исследования имеют практическое значение для лингвистики, перевода и анализа медийного дискурса.

**Ключевые слова:** коллокация, новостной дискурс, структурная модель, медийный текст.

## **COLLOCATIONS IN ENGLISH AND UZBEK ONLINE NEWS TEXTS AND THEIR STRUCTURAL FEATURES**

**Yuldasheva Mastona Mukhubillayevna**  
Gulistan State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This article analyzes the most frequently occurring collocational units in online news texts and their structural features. The research material consists of news texts in Uzbek from Kun.uz, Daryo.uz, and Qalampir.uz, as well as English-language news texts from BBC News, CNN, and Sky News. Collocations were identified through text observation and structural analysis. The findings reveal that in English, such structural models as Adj+N, V+N, and N+N are

prevalent, whereas in Uzbek, N+N and N+V models are more actively used. It was also observed that the most frequent collocational units semantically belong to political, social, and economic domains. The results of the study have practical significance for linguistics, translation studies, and media discourse analysis.

**Keywords:** collocation, news discourse, structural model, media text.

Kollokatsiya til birliklarining odatiy birikuv xususiyatini ifodalovchi hodisadir. Ushbu tushuncha zamonaviy lingvistika, xususan, diskurs va matn lingvistikasida muhim o‘rin egallaydi. Kollokatsion birliklar nutqning tabiiyligi va stilistik xususiyatlarini belgilaydi. Kollokatsiya masalasini o‘zbek tilshunoslaridan Sh. Rahmatullayev, M. Asqarova, Sh. Usmonova, yosh tadqiqotchilardan esa M. Yo‘ldosheva, Sh. Adxamovalar o‘rgangan bo‘lib, ular o‘z asarlarida ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matn kollokatsiyalarini, parallel korpus asosida ingliz va o‘zbek tilidagi leksik va grammatik kollokatsiyalarni tahlil qilganlar. Ingliz tilidagi kollokatsiya masalalari esa J. R. Firth, M. A. K. Halliday, John Sinclair, Michael Lewis kabi olimlar tomonidan tadqiq etilib, ularning ishlarida kollokatsiya borasida nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Britaniyalik tilshunos J. R. Firth kollokatsiyani so‘zlarning nutqda bir-biri bilan odatdagi qo‘llanishi sifatida tushuntiradi. Uning mashhur fikriga ko‘ra, *“You shall know a word by the company it keeps”*, ya‘ni so‘zning ma‘nosi u bilan birga keladigan boshqa so‘zlar orqali aniqlanadi [1; 1934–1951-b.]. John Sinclair esa kollokatsiyani korpus lingvistikasi nuqtayi nazaridan izohlab, uni bir so‘zning boshqa so‘zlar bilan statistik jihatdan tez-tez birga qo‘llanishi deb ta‘riflaydi [2; 30–40-b.].

Shunday ekan, kollokatsiya — bu til birliklarining nutq jarayonida ma‘no va qo‘llanish jihatidan mos kelib, odatda birga ishlatiladigan barqaror yoki odatiy so‘z birikishidir. Bunda ayrim so‘zlar boshqa so‘zlar bilan tez-tez va tabiiy tarzda qo‘llanishi orqali o‘zaro bog‘lanadi va shu orqali tilning leksik tizimida ma‘lum kombinatsiyalarni hosil qiladi. Kollokatsiyalarni turli xil matnlarda batafsil o‘rganish mumkin. Ushbu maqolada onlayn yangiliklardagi ba‘zi kollokatsiyalar o‘rganib chiqilgan. Onlayn yangilik matnlari tezkorlik, ixchamlik va standartlashganligi bilan ajralib turadi. Biroq bu matnlarda uchraydigan kollokatsiyalarning strukturaviy xususiyatlari yetarli darajada tavsiflanmagan. Mazkur maqolaning maqsadi onlayn yangilik matnlaridagi eng ko‘p uchraydigan kollokatsiyalarni aniqlash va ularning strukturaviy xususiyatlarini tavsiflashdan iborat.

**Metodologiya.** Tadqiqot uchun ingliz tilida 25 ta va o‘zbek tilida 25 ta yangilik matni tanlab olindi. Matnlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi maqolalardan iborat. Tadqiqot jarayonida tavsifiy tahlil, strukturaviy tasniflash hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Kollokatsiyalar kontekst asosida ajratib olindi va ularning sintaktik modeli aniqlandi. *Kun.uz*, *Qalampir.uz* kabi manbalardan quyidagi kollokatsiyalar terib chiqildi.

### **1. Huquqiy sohada kollokatsiyalar (o‘zbek tili)**

1. chora ko‘rildi
2. reydlar aniqlandi
3. so‘roq-savol qilinib
4. sud qarorlari
5. soxta qarorlar
6. fuqarolik sudyasi
7. ishni ko‘rib chiqish
8. sud jarayoniga ta‘sir qilish

### **2. Energetika va kommunal sohaga oid kollokatsiyalar**

9. isitish mavsumi
10. bazaviy me‘yor
11. limit uzaytirildi
12. tabiiy gaz sarfi

13. 500 kub metrlik me'yor

**3. Turnir va musobaqa bilan bog'liq kollokatsiyalar**

14. chempionlik poygasi
15. jiddiy zarba bo'ldi
16. to'rt ochkoga ortda qoldi
17. "Real"ning mag'lubiyati
18. peshqadamdan ortda qolmoq
19. qiyin raqib
20. guruh bosqichi
21. qo'shimcha ikki o'yin o'tkazish
22. Madridliklar birinchi o'ringa chiqdi
23. sport yangiliklari
24. g'alaba qozondi
25. final bosqichi

**Legal/Law topic (ingliz tili)**

1. trademark case
2. court decision
3. successfully sued
4. overturned ruling

**Media topic**

5. pop megastar
6. US singer
7. Australian tour
8. sell merchandise

**War/Military action**

9. tear through
10. Israeli strike
11. strike on
12. resumed here
13. Israeli military
14. hold talks

**Others**

15. raise concerns
16. issue a statement
17. face criticism
18. reach an agreement
19. take action
20. impose sanctions
21. spark debate
22. suffer losses
23. boost the economy
24. file a lawsuit
25. tighten security

Yuqoridagi kollokatsiyalar turli xil matnlar tahlili asosida terib chiqildi, kollokatsion birliklarning bir nechta strukturaviy modellari aniqlanib, ularning qo'llanish chastotasi va funksional xususiyatlari tavsiflandi. Natijalarga ko'ra quyidagi strukturaviy modellar aniqlandi.

**Ingliz tilidagi matnlarda**

№	Kollokatsiya	Struktura modeli
1	Trademark case	Noun + Noun
2	Court decision	Noun + Noun

3	Successfully sued	Adverb + Verb
4	Overtured ruling	Verb + Noun
5	Pop megastar	Noun + Noun
6	US singer	Adjective + Noun
7	Australian tour	Adjective + Noun
8	Sell merchandise	Verb + Noun

**Umumiy xulosa (struktur tahlil):**

- **Noun + Noun:** *trademark case, court decision, pop megastar*
- **Adjective + Noun:** *US singer, Australian tour, Israeli strike, Israeli military*
- **Adverb + Verb:** *successfully sued*
- **Verb + Preposition:** *tear through*
- **Verb + Adverb:** *resumed here*
- **Verb + Noun:** eng ko'p uchraydigan model (*hold talks, raise concerns, issue a statement, take action* va boshqalar)

**O'zbek tilidagi matnlarda**

Kollokatsiya	Struktura
Chora ko'rildi	Ot + Fe'l
Reydlar aniqlandi	Ot + Fe'l
So'roq-savol qilinibdi	Ot + Fe'l
Sud qarorlari	Ot + Ot
Soxta qarorlar	Sifat + Ot
Fuqarolik sudyasi	Ot + Ot
Ishni ko'rib chiqish	Ot + Fe'l
Sud jarayoniga ta'sir qilish	Ot + Ot + Fe'l

**Berilgan o'zbek kollokatsiyalarining asosiy struktur modellari:**

- **Ot + Ot** (*sud qarorlari, isitish mavsumi, guruh bosqichi*)
- **Sifat + Ot** (*soxta qarorlar, qiyin raqib, bazaviy me'yor*)
- **Ot + Fe'l** (*chora ko'rildi, limit uzaytirildi*)
- **Murakkab konstruksiyalar** (*son + ot + fe'l yoki ot + ot + fe'l*)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tilidagi yangiliklar (*news discourse*) matnlarida ishlatiladigan kollokatsiyalar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, struktura jihatidan ingliz tilida kollokatsiyalar asosan **Verb + Noun** modeli bilan ifodalanadi (*take action, impose sanctions, sell merchandise*). Bu yangilik matnlarida voqea, harakat va qarorlarni tez va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ingliz tilida, shuningdek, **Noun + Noun** (*court decision, pop megastar*), **Adjective + Noun** (*US singer, Israeli strike*), **Adverb + Verb** (*successfully sued*) kabi modellarga ham uchraydi. O'zbek tilida esa kollokatsiyalar ko'proq **Ot + Fe'l** (*g'alaba qozondi, chora ko'rildi*), **Sifat + Ot** (*soxta qarorlar, qiyin raqib*) va **Ot + Ot** (*sud qarorlari, final bosqichi*) shaklida keladi. Bu esa o'zbek tilida yangilik matni kontekstida voqea va obyektни aniqlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

**Semantik jihatdan**, kollokatsiyalar yangilik matnlarida harakat, qaror, natija va mavzuni tez ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, *launch an investigation* yoki *chora ko'rildi* birikmalari o'quvchiga voqea tafsilotini qisqa va aniq yetkazadi. Sport va musobaqalarga oid kollokatsiyalar (*final bosqichi, g'alaba qozondi*) esa natija va jarayonni yoritishga xizmat qiladi.

**Funksional jihatdan** kollokatsiyalar yangilik matnlarida axborotning lo'nda, aniq va oqilona yetkazilishini ta'minlaydi. Shuningdek, ular matnga barqarorlik va professional uslub beradi, chunki odatiy birikmalar, ya'ni kollokatsiyalar o'quvchiga tabiiy va tushunarli ko'rinadi.

Kollokatsiyalar nafaqat so'zlarning tabiiy birikishini ifodalaydi, balki yangilik matnlarida voqeani, natijani va jarayonni tez hamda aniq yetkazishga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tilida ularning strukturasi farq qilsa-da, funksiyasi bir xil: matnga lo'ndalik, aniqlik va professional uslub berishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

14. Firth J. R. Papers in linguistics. — Oxford: Oxford University Press, 1957.
15. Sinclair J. Corpus, concordance, collocation. — Oxford: Oxford University Press, 1991.
16. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. — London: Longman, 1976.
17. Lewis M. Implementing the lexical approach. — Hove: Language Teaching Publications, 1997.
18. Yo‘ldoshova M. Ingliz va o‘zbek tilidagi badiiy matnlarda kollokatsiyalar // Til va adabiyot. — 2018. — B. 45–54.
19. Xudoyqulov A. O‘zbek tilidagi leksik kollokatsiyalarni korpus asosida o‘rganish // Linguistica Uzbekica. — 2019. — B. 23–31.
20. Adxamova Sh. Ingliz va o‘zbek tilida kollokatsiya hodisasi // Tilshunoslik ilmi. — 2020. — B. 12–20.
21. Umarova Sh. Kombinator lingvistika va kollokatsiyalar // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2021. — B. 34–42.
22. News discourse and collocations analysis // The Management Journal. — 2025. — B. 50–67.
23. Ingliz va o‘zbek tilida kollokatsiyalarni tahlil qilish // International Linguistics Review. — 2020. — B. 88–96.